



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

QILXON IBROHIMOV VA O'ZBEK MUSIQASHUNOSLIGI ODIMLARI

Ravshan YUNUSOV,
*musiqashunos, Yunus Rajabiy nomidagi
O'zbek milliy musiqa san'ati instituti professori.*

Milliy musiqa san'atimiz ilm-fanining atoqli namoyandasi, maqomshunos olim, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, "Mehnat shuhrati" ordeni nishondori, san'atshunoslik fanlari doktori Oqilxon Akbarovich Ibrohimov hayot bo'lganida shu yil 26-sentabr kuni 67 yoshga to'lardi. Baxtga qarshi bundan sakkiz oy muqaddam, qahraton yanvar oyida uning nozik yuragi daf'atan boshlangan xurujga bardosh berolmay, urishdan to'xtadi ...



Ushbu mash'um voqeaga qadar Oqilxon Ibrohimovning ilmiy-ijodiy va muallimlik mehnat faoliyati asosan hozirgi San'atshunoslik instituti, poytaxt konservatoriyasi hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamoalari o'rtasida kechgan. So'nggi o'n yilliklar mobaynida u maqom ilmi va ta'limi, shuningdek ma'rifiy sohalarda alohida jonbozlik ko'rsatib, san'atshunoslik fani hamda milliy madaniyatimiz ravnaqining chin fidoyilaridan biri sifatida keng tanildi. Uning vafoti respublikamiz musiqa jamoatchiligi, xususan zamonaviy musiqashunoslik ilm-fani uchun og'ir judolikdir.

Yoshlik chog'laridan Oqilxon qalban musiqa ijrochiligiga berilgan holda, R.Glier nomidagi Respublika maxsus musiqa maktab-internati yuqori sinflarida qiziqishi ko'proq nazariy o'quv fanlariga ko'chadi. Toshkent davlat konservatoriyasida u "Musiqqa nazariyasi" kafedrasida bo'yicha taniqli musiqashunos Zarifa Karimova rahbarligi ostida saboq oladi. Majburiy harbiy xizmatni uzoq o'lkalarda o'tab kelgach, umidli musiqashunos ilmiy harakatlarini xalqaro ko'lamda dong taratishga ulgurgan avvalgi Toshkent konservatoriyasidagi "Sharq musiqasi" kafedrasida yo'nalishi bo'yicha davom ettirishni afzal ko'radi.


O'sha kezlari kafedra mudiri vazifasini bajargan yetuk musiqashunos olim Otanazar Matyoqubov yosh hamkasbiga yo'l-yo'riq ko'rsatib, bo'linma tarkibidagi "Xalq musiqasi" kabinetiga ishga oladi. Ana shu palladan e'tiboran Oqilxon mohir sozanda, dutor sinfi hamda maqom cholg'u ansambli o'qituvchisi Abdurahim

Hamidov, aspirant Abdumannon Nazarov va yosh o'qituvchi bo'lgan kamina bilan yaqindan tanishib, keyinchalik ajralmas do'st tutinadi. Uchovlon vaqtni boy bermasdan kunduzgi aspiranturaga kirib o'qishi shartligini uqtirib, kelgusida bilimdon maqom nazariyotchisi bo'lib yetishishiga tilakdosh edik. Oqilxonni qo'llab-quvvatlagan aksar soha mutasaddilari aynan Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borish zamonaviy musiqashunoslikning galdagi eng dolzarb vazifasi, deb uqtirgani rost.


1983-yilda O.Ibrohimov maqom turlarining ilmiy-tarixiy va nazariy masalalarini qayta o'rganib, ilmiy tahlil etishni San'atshunoslik instituti aspiranturasida tajribali ustoz Fayzulla Karomatov rahbarligi ostida boshladi. Harakatga tushgan navqiron aspirant akademik Yunus Rajabiy to'plab jonlantirgan ilmiy merosni o'zlashtirishga kirishadi, atoqli maqomshunos va manbashunos Ishoq Rajabov qalamiga mansub ilmiy monografiya va maqolalarni, tarixiy maqom manbalarini qunt bilan o'rganadi. Pirovardida bu allomalar ishlab chiqqan Shashmaqom ta'limotini tushunib-yetib, avj va namudlar masalasida yirik ilmiy kashfiyot bilan nom chiqargan Ishoq Rizziyevichni o'ziga ustoz deb qabul qiladi.

Aspirant O.A.Ibrohimov bajargan tizimli-tartibli izlanishlarda hali ochiqlanmagan qator ilmiy muammolar bo'yicha mantiqiy oydinlik paydo bo'ladi. 1988-yilda "Фергано-Ташкентские макомы в аспекте проблем макомата" deb nomlangan dissertatsiya muvaffaqiyatli himoyadan o'tib, da'vogar san'atshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ladi.

Sanoqli yillardan so'ng mazkur institutda ilk bor ochilgan doktoranturaga kirmoqchi bo'lganlar orasida salohiyati ancha yuqori O.A.Ibrohimov tanlov asosida o'qishga qabul qilinadi. Roppa-raso o'n yil o'tib mukammal bajarilib muhokamalardan o'tib himoyaga qo'yilgan "Maqomlar



semantikasi" nomli uning doktorlik dissertatsiyasi o'zbek maqomlarining ma'nolar tizimiga oid yangi sahifalar, avval e'tibordan chetda bo'lgan ilmiy tafakkur ufqlari ochildi.



Kasbiy jihatdan yetuklik davrida Oqilxon Akbarovich asosan maqomshunoslikka tegishli mavzu va masalalarga, san'atshunoslik ilm-fani ravnaqiga, ayni paytda soha ta'limi, ma'naviyat va ma'rifatga taalluqli ishlar bilan muttasil mashg'ul bo'lishda davom etadi. Binobarin, o'zbek xalqi musiqa ijodiyoti, xususan mumtoz maqom merosining yirik tadqiqotchisi bo'lib yetishadi, muallimlikka ham vaqt va kuchini safarbar etadi. Ayni


paytda musiqa targ'ibotchiligi va ustoz-murabbiylikni bir-biriga bog'lab olib borishni epladi.

Bandalikni bajo keltirgan Oqilxon Akbarovich Ibrohimov, avvalo, qalbi pok, iymon-e'tiqodi mustahkam, shuningdek tafakkuri keng, bilimlari chuqur, tabiatan

kamtarin inson bo‘lib yodimizda qoladi. U o‘z oldiga qo‘ygan ezgu maqsadlarga iqtidori ila mashaqqatli mehnati evaziga erishgan. Shukrki, ko‘ngli to‘q, bag‘ri but, mehribon do‘st va sodiq shogirdlarga boy, jamiyatda obro‘si baland, yuzi yorug‘ bo‘lib yashadi. Hayot davomida yorlaqagan iste‘dodi, kuch-g‘ayrati va fidokorona mehnati tufayli havas kiladigan yutuqlarni qo‘lga kiritib umrguzaronlik qildi. Umr yo‘ldoshi Muborakxon bilan birgalikda Oqilxon ota to‘rt nafar solih farzandini tarbiyalab voyaga yetkazdi. Bular ortidan sevikli nevaralar boshini silab, erkalatadigan mehribon bobo bo‘lish ham unga nasib etdi.

Oqilxoning fikri-zikri, so‘zi bilan ishi, niyati ila say-harakati har doim bir-biriga mos, uyg‘un kelgan. O‘zbek va rus tillarida og‘zaki ma‘ruzalarni o‘qib eshittirish bo‘ladimi, yozma ishlarni amalga oshirishmi, qay biridan qat‘i nazar, yuqori ilmiy saviyada bajarilgani qayd etiladi. Har birining tarkibidagi jonli muloqotlarni, yoqimli muomala madaniyatida olib borilganini eslamay iloj yo‘q. Vaholanki, ilmiy mavzu va masalalar ustida izlanishni u “igna bilan quduq qazish”ga o‘xshatar, inson omili, halollik masalasida esa ba‘zan tashvishlanib, “olim buzildi – olam buzildi”, - degan naqlni tilgan olardi. Ya‘ni, har bir ishda, kundalik muloqotda to‘g‘riso‘zlik va halollikni oliy qadriyatlar qatorida turishini shogirdlariga qayta-qayta uqtirib kelganiga guvoh bo‘lganlar ko‘p. Hassos o‘zbek musiqa nazariyotchisi nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro doiralarda ham turli mavzularda o‘nlab so‘zga chiqishlari zamondosh tinglovchilar e‘tiboridan chetda qolmagan.

1994-yilda O.A.Ibrohimov qalamiga mansub “O‘zbek xalq musiqa ijodi” o‘quv qo‘llanmasining 1-qismi, 2000-yilda esa kamina tayyorlagan 2-qismi chop etilishi o‘rta bo‘g‘in musiqiy-pedagogik ta‘lim muassasalarida shu nomli o‘quv fani o‘qitilishiga imkon yaratdi. Shuningdek O.A.Ibrohimov kamina bilan hammualliflikda o‘zbek an‘anaviy musiqa ijodiyoti namunalaridan tuzilgan ilk “Solfedjio” darsligining 2004-yilda nashr etilishi musiqa o‘quv yurtlari bu toifa qo‘llanmalarga sezilgan katta ehtiyojini qondirgandek bo‘ldi. Ikkalasi puxta ishlangan o‘quv adabiyotlar sirasidan bo‘lib, shaklan va mazmunan hanuz eskirmagani, ko‘p foydasi tegayotgani joylarda e‘tirof etilayotir. Shu boisdan ularni qisman yangilab qayta nashr ettirilishi maqsadga muvofiq, albatta.




2002-yilda YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi Bosh kotibi Alisher Ikromov mas‘ulligida Ravshan Yunusov, Oqilxon Ibrohimov, Hasan Rajabiy hamkorligida Shashmaqom durdonasini saqlab qolishga qaratilgan loyiha ishlab chiqilgan. Shu asosda 2003-yilda “Shashmaqom – insoniyatning og‘zaki va nomoddiy merosi” nomli xalqaro YUNESKOning Dasturi qabul qilingani ko‘pchilikka ayon. Mazkur Dastur dunyo hamjamiyati e‘tiborini tortishi uchun uning Loyihasi puxta, asosli, isbotli darajada ishlab chiqilishida Oqilxon Ibrohimovning shaxsiy ulushi ayniqsa katta bo‘lganini alohida ta‘kidlash joiz.

Oqilxon bilan birga ko'p marotaba ijodiy safarlarga chiqishga, turli xil ilmiy-musiqiy anjumanlarda va sohaga oid muhokama, bahs-munozalarda qatnashishga to'g'ri kelgan. O'tkazilgan nufuzli xalqaro ilmiy-ijodiy anjumanlar ishini tashkil etishda ham birga bo'ldik. Olimlikda ham, jurnalistikada ham o'rnak ko'rsatib kelgani haq gap. U har bir masalada o'z fikriga ega, zarurat tug'ilganda hech ikkilanmay sayoz qo'lyozmalarini chiroyli tahrir etib takomillashtirishga qo'l urardi.


Oqilxon Akbarovich Ibrohimov o'z vaqtida yuqori lavozimlarga tayinlanib, maqtovlarga arzigulik ishlarni amalga oshirgan shaxs. Nufuzli tashkilotlar yukini tortib, achchiq-chuchugini ham totib ko'rganlardan. Avvalgi San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti direktori, O'zbekiston davlat konservatoriyasi rektori vazifalarida bir muddat ishlab ko'rdi, yetarli tajriba orttirgandek bo'ldi. Ammo bu toifa minnatli va tashvishli xizmatlar, xalq ta'birida "yemagan somsaga pul to'lashlar" uning tabiatiga, fe'liga o'rnashmadi. O'z vaqtida kelib, har gal kechikmasdan o'rgangan ishiga qaytishni ko'zlab turgan. Shogirdlar ilmiy izlanishlariga esa rahnamolik qilish unga zinhor malol kelmasdi. Qiziqish va intilishlarni rag'batlantirib, muvaffaqiyatli harakatdan qoniqish hissi unga o'zgacha zavq berardi.

O'zbekiston maqomshunosligi tarixiga Oqilxon Ibrohimov ustoz, ulkan olim Ishaq Rajabovning izdoshi hamda u avval amalga oshirgan ilmiy ishlarning ma'lum ma'noda davomchisi bo'lib kiradi. Ayni paytda yangi g'oya va bajarilgan yangi tadqiqotlar bilan atoqli o'zbek musiqashunoslari qatorida munosib o'rin egalladi. Uning salmoqli ilmiy-ijodiy merosi shundan yaqqol dalolat beradi.




E'tiborli nashrlardan yana biri "Суфийские традиции в искусстве Мавераннахра XV-XVII вв." deb nomlangan. Bu jamoaviy monografiya bo'lib, unda Oqilxon Ibrohimov "Maqom va koinot" masalasini ilgari surgan. Tarkibiga kirgan umumnazariy tamoyillardan so'ng "Yetti maqom tizimi", "Kitob bezaklari va musiqa", "Rang va musiqa", so'nggida "O'n ikki maqom tizimi" kabi qiziqarli masalalar maqsadli tavsif va tahlil etilgani qimmatli. Muallif Sharq musiqa risolalarida berilgan ma'lumotlarni tasavvuf ta'limoti an'analari kesimida yoritishga muvaffaq bo'lgan.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 2018-yilda "TURON-IQBOL" nashriyotida O.A.Ibrohimov qalamiga mansub "Maqom asoslari" o'quv qo'llanmasini bosmadan chiqardi. U Oliy ta'lim muassasalari uchun chop etilgani e'tiborli. Bir yil o'tib O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi tashkil etgan Musiqashunoslar orasida respublika tanlovida O.A.Ibrohimov taqdim etgan "Maqom asoslari" kitobi faxrli 1-o'ringa loyiq deb topilgan holda, belgilangan mukofot va 1-darajali Diplom bilan taqdirlandi.



O.A.Ibrohimov musiqiy-ma'rifiy ishlari haqida tasavvurga ega bo'lish sohaga yaqin o'quvchilarga aytarli qiyin emas. Taniqli olim gazetxon va jurnalxonlar qiziqishlarini hisobga olgan holda fikr yuritib qalam tebratishni unutmaydi. Ommabop maqolalari "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Toshkent haqiqati" va boshqa gazetalarda, "Yosh kuch", "Yoshlik", "Guliston", "Tafakkur", "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar", "Xalq ta'limi", "Teatr" kabi jurnallarda, ayrimlari turkumli tarzda chop etilgani e'tiborli.



Respublikamiz umumta'lim maktablari uchun O.A.Ibrohimovning ko'p va xo'b xizmatlari singgan. O'zbek tilida hammualliflikda yoki yakka o'zi qator sinflar uchun "Musiq" darsliklarini tayyorladi. Jumladan, 2005-yilda rus tilida o'qitiladigan maktablarning 7-sinflari uchun ham kamina hammuallifligida shundan darslik tayyorlanib chop etilgani e'tiborli.

Shuningdek, "O'zbekiston san'ati" nomi ostida nashr etilgan mazmundor jamoaviy monografiyada, "San'atshunoslik masalalari" (I-II-III), "Rajabiyxonlik", "Musiq ijodiyoti masalalari" (I-II) ilmiy maqolalar to'plamlari Oqilxon Ibrohimov yozgan maqolalari bilan bezalgani aniq. Har birida o'quvchini qiziqtiradigan, ilmiy jihatdan yangiligi bor dolzarb masalalar ko'tarilib, mazmun bag'ishlaydigan maqolalar e'lon qilinganini bilamiz. Bunga oltmishdan ziyod radioeshittirish va teleko'rsatuvlar tayyorlab o'zi olib borgani, ijodiy uchrashuvlarda qatnashib so'zga chiqqani, muloqotlarda faol qatnashganini ko'pchilik yaxshi eslaydi. Matbuotda turli yillarda bosilib chiqqan O'zbekiston san'ati darg'alaridan To'ychi hofiz, Hoji Abdulaziz, Yunus Rajabiy, Ishoq Rajabov, Fayzulla Karomatov, Fattohxon Mamadaliyev, Mirsodiq Tojiyev va boshqalar hayoti va ijodiy merosiga bag'ishlangan mazmundor maqolalarini ko'pchilik maroq bilan o'qib tasannolar aytganini eslaymiz.

Hozirgi zamon O'zbekiston musiqashunoslik ilm-fani, jumladan maqomshunosligi ravnaqiga atoqli nazariyotchi olim, san'atshunoslik fanlari doktori Oqixon Akbarovich Ibrohimov barakali ulush qo'shdi. U bajargan akademik toifadagi ilmiy tadqiqotlar, tayyorlagan darslik va o'quv qo'llanmalar, yozgan ilmiy-uslubiy va ma'rifiy maqolalar qiziqarli, amaliy tomondan muhim, ilmiy jihatdan dolzarb mavzu va masalalarga bag'ishlanib, soha ila afkor jamiyatimiz ehtiyojlarni qondirib kelmoqda. Joriy yilda marhumning ko'p yillik mehnati bilan nashga tayyorlangan ustozimiz Ishoq Rajabov qalamiga mansub "Sharq xalqlari musiq atamalarining qisqacha lug'ati" nashr yuzini ko'rishi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori, marhum O.A.Ibrohimov xotirasiga bag'ishlangan ilmiy konferensiya yuqori saviyada o'tkazilishi, so'nggi qo'lyozmalaridan tugal holatdagi "Maqom asoslari" darsligi, "Maqom tarixi va nazariyasi", "Amir Temur va Temuriylar davri musiq madaniyati" kabi darsliklarining chop etilishi esa muallifning yorqin xotirasiga hurmat bajo keltirish, xayrli ishlar dalolatidir.



Milliy musiqa san'atimiz eng yaqin tarixida hassos olim va ustoz Oqilxon Akbarovich Ibrohimov o'chmas iz qoldirdi. Uning qimmatbaho ilmiy-ijodiy merosi bundan buyon ham avlodlarga ham beminnat xizmat qilishiga ishonchimiz komil. Unda mujassam etilgan insoniy tafakkur, katta ma'naviy salohiyat xalqimiz madaniy turmushini bezash, ruhiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur. Muhtaram hamkasbim, aziz Oqilxon do'stimning oxirati obod, ruhi hamisha shod bo'lishini yaratgandan so'rab qolaman.

MAQOMSHUNOS OLIM OQILXON IBROHIMOV ILMIIY-IJODIY VA PEDAGOGIK FAOLIYATI XUSUSIDA

Jo'raqul SHUKUROV,
*O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedresi professori,
O'zbekiston Respublikasi San'at arbobi.*

Assalomu alaykum hurmatli konferensiya ishtirokchilari hamda tashkiliy qo'mita a'zolari!

Hammangizni Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag'ishlangan mazkur respublika ilmiy-nazariy konferensiya bilan chin dildan tabriklayman, va tashkiliy qo'mita a'zolariga ham o'zimni minnatdorchiligimni izhor etaman.

Men, Oллоh rahmat qilgan bo'lsin do'stim, ukam, qadrli insonim Oqilxon haqida o'ylar ekanman, uning beg'ubor o'y-fikrlari, qachon ko'rmay, bir ilmiy g'oyani hamisha ilgari surib yurardi. Oqilxon: goh bir ilmiy maqola haqida, gohida ilmiy monografiya haqida, goh tayyorlanayotgan o'quv adabiyotlari haqida, gohida shogirdlari xususida juda qayg'urar, ularning dardiga malham, quvonchi va yutug'i esa, go'yo o'zining erishgan muvaffaqiyati kabi hamisha to'lib gapirardi.